

## IPAK MATOLARDAN FOYDALANIB, AYOLLAR KOFTASINI TIKISH TEKNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

**Xoshimova Maftunaxon Xoshimjon qizi**

Farg‘ona politexnika institute “Yengil sanoat buyumlari texnologiyasi”  
kafedrasi assistenti

**Annotatsiya.** Turli xil tuzilishdagi mavjud ipak matolardan ishlab chiqarishda samarali foydalanish uchun ayollar koftasining yangi assortimentlari tanlandi va tahlil qilindi. Vazifasiga ko‘ra tanlangan modellar ishlab chiqildi va mavjud ipak matolarini tayyor kiyimga tavsiya etildi. Buyumni tikishni texnologik tartibi tuzildi. Koftani konstruktsiya va ishchi andozalarini tikuv ishlab chiqarish korxonalariga joriy etishga tavsiya etildi..

**Kirish.** Hozirgi zamон talablaridan kelib chiqib, kiyimning shakli, matosining to‘qima gullari, naqsh va uni zamonaviy kiyimga qoplash jarayoni katta ahamiyatga ega.

Ipak gazlamali mahsulotlari chiroyligi ko‘rinishi, qulay, kiyganda shaklini yaxshi saqlashi, rangi va o‘lchamini yo‘qotmasligi, shuningdek, harakat jarayonida va ishqalanishga chidamli bo‘lishi talab etiladi.

Kiyimni loyihalash va tikish texnologiyasi kiyim ishlab chiqarishda muhim jarayon hisoblanadi. Bu esa kiyim sifatining iqtisodiy samaradorligini belgilaydi [1-3].

Yengil sanoat va tikuv-trikotaj assortimentini ishlab chiqarish jarayonidagi tajribalaridan kelib chiqib [3-7] shuni tasdiqlash joizki, konstruktsiyani ishlab chiqish va tikish mahsulotning sifatiga bog’liq bo‘lib, u ekspluatatsiya jarayonida namoyon bo‘ladi.

Kiyimni loyihalash va tikish texnologiyasi kiyim ishlab chiqarishda muhim jarayon hisoblanadi. Bu esa kiyim sifatining iqtisodiy samaradorligini belgilaydi.

Yangi tuzilishdagi va turli naqshdagi ipak matosi talablari inobatga olingan holda ishlab chiqilgan tikuv mahhsulotlar sifati oshib boradi.

Ipak tolasini qayta ishslash texnologiyasini takomillashtirish va yangilarini yaratish yo‘nalishida olimlarimiz tomonidan bir qator ishlar amalga oshirilgan. Bulardan professor X.A.Alimovaning ipak tolalarini chiqindisiz texnologiyasini

yaratish [4-9] yo‘nalishidagi qator ishlari alohida ahamiyatga egadir. Shuningdek, TTYESI olimlari SH.A.Qodirov, K.M.Yuldasbekova, M.M.Muhammedov va O‘zIITI xodimlari I.V. Nikitin, L.V.Shestakov hamda bir qator izlanuvchilar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan [10-17].

**Yechiladigan muammo va masalaning qo‘yilishi.** Ayollar kiyimlari gazlamalar guruhi juda turli tuman. Bu guruhga yozgi, qishki, mavsumbop va kimyoviy kompleks iplar qo‘shilib to‘qilgan gazlamalar kiradi. Yozgi gazlamalar kichik guruhiga siyrak, yupqa va yengil gazlamalar kiradi. Ular gulli, bir xil rangli ham bo‘ladi. Ayllar koftasini tikish uchun ipak gazlamasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Zamonaviy model va konstruktsiyadan kelib chiqib, yangi turdagи jihoz va uskunalardan samarali foydalangan holda ipak gazlamalni ayollar koftasini tikish texnologiyasini takomillashtirish lozim.

**Тадқиқот объектининг ёритилиши, эришилган натижаларнинг tahlili.** Ipak gazlamasining tarkibi, tuzilishi turli- tuman bo‘ladi. Ipak gazlamalar assortimentining 98% ini kimyoviy tolalardan to‘qilgan gazlamalar tashkil qiladi, [1].

Savdo preyskuranti bo‘yicha ipak gazlamalar sakkiz guruhga bo‘linadi, har bir guruh oltita kichik guruhdan iborat. Ipak gazlama artikulining birinchi raqami guruh nomerini, ya’ni tola tarkibini, artikulning ikkinchi raqami kichik guruh nomerini, ya’ni gazlamaning tuzilishi va nimaga ishlatilishini ko‘rsatadi. Ipakdan to‘qilgan barcha gazlamalarda artikulning birinchi raqami 1, boshqa tolalar qo‘shilgan ipakdan to‘qilgan gazlamalarda 2, sun’iy iplardan to‘qilgan gazlamalarda 3, boshqa tolalar qo‘shilgan sun’iy iplardan to‘qilgan gazlamalarda 4, sintetik iplardan to‘qilgan gazlamalarda 5, boshqa tolalar qo‘shilgan sintetik iplardan to‘qilgan gazlamalarda 6 raqami bilan belgilanadi.

Ipak gazlamalar ko‘pincha yo‘g’onligi 1,5—2,3 teksli ingichka xom ipakdan, pishitilgan tabiiy ipak va ba’zi gazlamalarga ipak kalava ipdan polotno o‘rilishda to‘qiladi. Tabiiy krep gazlamalar ishlab chiqarishda gazlamalarda mayda naqshli sirt hosil qiladigan ipak-krep ishlatiladi. 1 m<sup>2</sup> eng yupqa gazlamaning massasi 14—22 g, 1 m<sup>2</sup> gazlamaning o‘rtacha massasi 50—60 g.

Tabiiy shoyi gazlamalari asosan sidirg‘a yoki gul bosilgan tarzda ishlab chiqariladi, nisbiy zichligi uncha katta bo‘lmay, asosan ayollar ko‘ylaklari va murakkab modelli koftalar tikish uchun ishlatiladi.

Preyskurant bo‘yicha tabiiy shoyi gazlamalar guruhi krep, atlas, jakkard, tukli

va maxsus kichik guruhlarga bo‘linadi [18-22].

Tabiiy ipakdan to‘qilgan gazlamalar osongina cho‘zilishi, qiyshayishi va titilishi tufayli ulardan tikuvchilikda foydalanish yoki buyum ishlab chiqarish qiyin. Shoyi gazlamalarining sirti silliq bo‘lganligi sababli detallar sirpanib ketaveradi va bichish murakkablashadi. Bunday gazlamalarni tikishda 75-85- nomerli ignalar, 80—100- nomerli paxta iplar yoki 65-nomerli ipak iplar ishlatish tavsiya qilinadi (1-jadval).

1-jadval. Tavsiya etiladigan materiallar tavsifi

| No | Material nomi | Artikuli | Eni, sm | Tolaviy tarkibi, % |
|----|---------------|----------|---------|--------------------|
| 1. | Ipak          | 11010    | 100     | 100%               |
| 2. | Ipak          | 12010    | 100     | 100%               |
| 3. | Ipak          | 15010    | 100     | 100%               |



# Research and Innovation House

Taklif model – 1 tasnifi

Bluzkalar uchun ipak matolar eng tipik - tabiiy va sintetik tolalar. Tabiiy ipakdan tayyorlangan matolar - krepdeshin, krep-georget, shifon - yengilligi, elastikligi va yaxshi gigienik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Boshqa tolalar bilan

aralashtirilgan tabiiy ipakdan tayyorlangan matolar - viskoza, atsetat ham bluzkalar uchun qo'llash mumkin. Ushbu matolar krep to'quv matolari kabi g`ud`ur sirtga ega, ular deyarli burishmaydi va kiyinishi juda yaxshi. Sport uslubidagi bluzkalar uchun paxta matolari, ko'yaklar (sun'iy tolalar bilan aralashtirilgan paxta) va boshqalar mos keladi.

**Ipak gazlamali ayollar koftasi uchun model eskizlar tayyorlash, [2, 3].**

Ayollar uchun bahor – kuz mavsumiga, kundalik kiyishga mo'ljallangan kofta.

Matosi ipak tolali bo'lib, silueti trapetsiyasimon. Kofta bo'yin o'mizi uchburchak shaklli va tik yoqalar old bo'lakda boylangan. Etak qismi rezinalangan. Old bo'lak yelka qismi koketkali, old bo'lak o'rta chok plankali. Tugma bilan old bo'lak birikadi. Ort bo'lak ham yelka qismi koketkali bo'lib, kiritma taxlamaga terilgan.

Yengi o'tkazma, bir chokli, uzunligi  $\frac{3}{4}$  uzunlikda, yeng uchiga rezina bilan ishlov berilgan.

Bu kofta 164 – 170 bo'yli, III – to'lalik guruhidagi 44 – 46 o'lchamli ayollarga tavsiya etiladi.



Taklif model – 2 tasnifi

Ayollar bahor – kuz mavsumiga, kundalik kiyishga mo'ljallangan koftasi bo'lib, matosi ipak aralashmali gazlama, silueti trapetsiyasimon. Tik yoqali old bo'lak yelka vitochkasidan relyef chokli. Old bo'lak tugmali. Yeng tirsakkacha bo'lib, qaytarma manjetli.

Bu kofta 164 – 170 bo‘yli, III – to‘lalik guruhidagi 44 – 46 o‘lchamli ayollarga tavsiya etiladi.



Taklif model – 3 tavsifi

Ayollar bahor – yoz hamda kuz mavsumida, kundalik kiyishga mo‘ljallangan kofta.

Kofta matosi ipak tolali gazlama bo‘lib, silueti yarim yopishgan. Kofta old bo‘lagi tugmali bo‘lib, ko‘krak qismida qoplama cho‘ntakli, reglan yengli. Yengi kalta. Qaytarma yoqali, o‘mizga planka bilan ishlov berilgan. Ort bo‘lak vitochkali. Kofta silueti yopishgan.

Bu komplekt 164 – 170 bo‘yli, III – to‘lalik guruhidagi,  
44 – 46 o‘lchamli ayollarga tavsiya etiladi.

**Koftani tikish texnologik tartibini tuzish.** Tikuv buyumni ishlab chiqarish texnologik jarayonini ma'lumotnomasini shu buyumni tikish tartibi ko‘rinishida berish qabul qilindi, [3, 4, 5, 6, 7]. Texnologik tartibda buyum tikish texnologik operatsiyalarini ixtisosи, razryadi, bajarish vaqtি va qo‘llaniladigan asbob-uskuna ko‘rsatilib tuzilgan. Buyumni ishlab chiqarish jarayonining operasiyalarini ro‘yhati texnologiya, kiyimni loyihalash va ishlab chiqarishni tashkil qilish bo‘yicha namunaviy hujjat asosida normativ-tehnik hujjatlar va buyum tikish tehnologiyasi tuzildi. Ma'lumotlar 2-jadvalga tushirildi.



**2-jadval. Buyumga ishlov berishni texnologik tartibi**

| Nº | Texnologik (bo‘linmas) operasiyalar nomi                                    | Ixtisos | Razryadi | Vaqti sarfi | Asbob-uskuna (moslamalar) |
|----|---|---------|----------|-------------|---------------------------|
| 1  | 2   | 3       | 4        | 5           | 6                         |
|    | Kofta detallari chetlarini yo‘rmash   | MM      | 3        | 60          | MO-6714S-BE6-44H-G39/Q141 |
|    | Yoga ostki va ustki detallarini biriktirib tikish                           | M       | 2        | 30          | DDL-8100N                 |
|    | Yoqani o‘ngiga ag’darib dazmollah   | D       | 2        | 30          | TAR SR-48+50              |
|    | Manjet ostki va ustki detallarini biriktirib tikish                         | M       | 2        | 30          | DDL-810                   |
|    | Manjetni o‘ngiga ag’darib dazmollah   | D       | 2        | 30          | TAR SR-48+50              |
|    | Yeng yon qirqimlarini biriktirib tikish                                     | M       | 3        | 35          | DDL-8100N                 |
|    | Yeng uchiga manjetni bostirib tikish  | M       | 3        | 28          | DDL-8100N                 |
|    | Yeng yon chokini yorib dazmollah  | D       | 2        | 34          | TAR SR-48+50              |
|    | Ko‘fta yelka va yon qirqimlarini biriktirib tikish                          | M       | 3        | 44          | DDL-8100N                 |
|    | Ko‘fta yelka va yon qirqimlarini biriktirib tikilgan chokni yorib dazmollah | D       | 2        | 32          | TAR SR-48+50              |
|    | Yeng o‘miziga yengni biriktirib tikish                                      | M       | 3        | 36          | DDL-8100N                 |
|    | Yeng o‘mizini dazmollah   | D       | 2        | 28          | TAR SR-48+50              |
|    | Bo‘yin o‘miziga yoqani biriktirib tikish                                    | M       | 3        | 30          | DDL-8100N                 |
|    | Bo‘yin o‘mizini dazmollah   | D       | 2        | 24          | TAR SR-48+50              |
|    | Ko‘fta etagini bukib bostirib tikish  | M       | 3        | 28          | DDL-8100N                 |
|    | Ko‘ftani ortiqcha iplardan tozalash   | Q       | 2        | 24          | Qo‘lda                    |
|    | So‘ngi namlab isitib ishlov berish  | D       | 2        | 36          | TAR SR-48+50              |
|    | Qadoqlash   | Q       | 2        | 21          | Qo‘lda                    |
|    | Jami  |         |          | 580         |                           |





1 va 2 ustunda bo‘linmas operasiyalarning tartib raqami va nomi yozildi. 4 va 5 ustunlarda ishchilarning ixtisosi va razryadi qo‘yildi. Ular tarif-malaka ma'lumotnomadaii foydalanib, asbob-uskuna turi va ishning xarakteriga qarab belgilandi. Shuningdek, assortimentdagi koftalarini baza to‘rlari qurilib, konstruktsiyalari loyihalandi. Model kolleksiyasiga ishlov berish texnologik tartibi tuzildi, 3-jadval. Modelni ishlab chiqarish texnologik sxemasi 4- jadvalda keltirildi.

Bo‘linmas operasiyalarning sarf vaqt namunaviy texnologik hujjat asosida tuziladi yoki hisob yo‘li bilan aniqlanadi. 6-ustundagi bo‘linmas operasiyalarning vaqt sarfi yig‘indisi buyum sermehnatlilagini ko‘rsatadi:

$$T_b = \sum_1^n t_{b,o} = 580 \text{ s}$$

**3-jadval. Model kolleksiyasiga ishlov berish texnologik tartibi**

| N<br>nomi | Bo‘linmas operatsiya                                | Iht    | Raz<br>rya<br>d | Modellar<br>bo‘yichasarf<br>vaqt |    |    | Asb<br>ob-uskuna |
|-----------|---|--------|-----------------|----------------------------------|----|----|------------------|
|           |   |        |                 | A                                | B  | V  |                  |
| 1         | 2   | 4      | 5               | 6                                | 7  | 8  | 9                |
|           | Ko‘fta detallari chetlarini yo‘rmash                | M<br>M | 3               | 60                               | 60 | 60 | Qo‘lda           |
|           | Yoqa ostki va ustki detallarini biriktirib tikish   | M      | 2               | 30                               | 30 | 30 | MO-6714S-        |
|           | Yoqani o‘ngiga ag’darib dazmollash                  | D      | 2               | 30                               | 30 | 30 | DDL-8100N        |
|           | Manjet ostki va ustki detallarini biriktirib tikish | M      | 2               | 30                               | -  | -  | TAR SR-48+50     |
|           | Manjetni o‘ngiga ag’darib dazmollash                | D      | 2               | 30                               | -  | -  | DDL-8100N        |
|           | Yeng yon qirqimlarini biriktirib tikish             | M      | 3               | 35                               | 35 | 35 | TAR SR-48+50     |
|           | Yeng uchiga manjetni bostirib tikish                | M      | 3               | 28                               | -  | -  | DDL-8100N        |
|           | Yeng uchini bostirib tikish                         | M      | 3               | -                                | 28 | 28 | DDL-8100N        |
|           | Yeng yon chokini yorib dazmollash                   | D      | 2               | 34                               | 34 | 34 | TAR SR-48+50     |
|           | Ko‘fta yelka va yon qirqimlarini biriktirib tikish  | M      | 3               | 44                               | 44 | 44 | DDL-8100N        |

|      |  |   |   |     |    |    |                      |
|------|--|---|---|-----|----|----|----------------------|
|      | Ko'fta yelka va yon qirqimlarini biriktirib tikilgan chokni yorib dazmollahash | D | 2 | 32  | 32 | 32 | TA<br>R SR-<br>48+50 |
|      | Yeng o'miziga yengni biriktirib tikish   | M | 3 | 36  | 36 | 36 | DD<br>L-8100N        |
|      | Yeng o'mizini dazmollahash   | D | 2 | 28  | 28 | 28 | TA<br>R SR-          |
|      | Bo'yin o'miziga yoqani biriktirib tikish                                       | M | 3 | 30  | 30 | 30 | DD<br>L-8100N        |
|      | Bo'yin o'mizini dazmollahash   | D | 2 | 24  | 24 | 24 | TA<br>R SR-          |
|      | Ko'fta etagini bukib bostirib tikish   | M | 3 | 28  | 28 | 28 | DD<br>L-8100N        |
|      | Ko'ftani ortiqcha iplardan tozalash  | Q | 2 | 24  | 24 | 24 | Qo'l<br>da           |
|      | So'ngi namlab isitib ishlov berish   | D | 2 | 36  | 36 | 36 | TA<br>R SR-<br>48+50 |
|      | Qadoqlash  | Q | 2 | 21  | 21 | 21 | Qo'l<br>da           |
| Jami |  |   |   | 580 | 20 | 20 |                      |

4-jadval. Loyihadagi modelni ishlab chiqarish texnologik sxemasi

|                     |                                  |
|---------------------|----------------------------------|
| Buyum: kofta,       | buyum sermehnatliligi-Tb- 580 s, |
| Model - 1,          | ishchilar soni N = 10 dona,      |
| material – oksfotr, | oqim maromi t = 58 s,            |
| artikul - ,         | smena quvvati M = 496 dona       |

**Натижаларнинг янгилиги, амалда тадбик этилиши.** Ishlab chiqilgan assortimentni namuna nusxalari tayyorlandi. Assortimentdagi koftalarni baza to'rlari qurilib, konstruktsiyalari loyihalandi. Model kolleksiyasiga ishlov berish texnologik tartibi tuzildi va bularni ishlab chiqarishga keng joriy qilish tavsiya etiladi.



**Xulosa.** Kofta detallariga ishlov berishda texnologik ketma ketliklar hamda ishlov berish usullari va jihozlari, chok turlarini to‘g’ri tanlash buyumning tashqi ko‘rinishi sifati bilan bog’liqdir. Milliylikka urg`u berilgan holda tavsiya etilayotgan modelga muvofiq ipak gazlamasidan kofta ishlab chiqarish texnologik ketma – ketligi va ishlab chiqarish texnologik sxemasi ishlab chiqildi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Xoshimova, M. X. Q., & Tursunuva, X. S. Q. (2021). Kombinatsiyalashgan yengli ayollar paltosining konstruktiv shakllari tahlili. *Scientific progress*, 2(8), 622-626.
2. Xoshimova, M. X. Q., & Yuldasheva, D. B. Q. (2021). Ipak matolarining turlari va ularning tahlili. *Scientific progress*, 2(8), 627-633.
3. Рустамова, М. Ф. К., & Рустамов, М. А. У. (2022). Изготовление современных искусственных нитей для пошива одежды на производстве АО «Ферганаазот». *Science and Education*, 3(5), 584-590.
4. Muhammadrasulov, S. X., Xoshimova, M. X., & Mominov, B. B. (2023). Study of physical and mechanical properties of silk fabrics and their analysis. *European Journal of Emerging Technology and Discoveries*, 1(3), 28-34.
5. Sh, T. X., Nizamova, B. B., & Mamatqulova, S. R. (2021). Analysis Of The Range Of Modern Women's Coats. *The American Journal of Engineering and Technology*, 3(09), 18-23.
6. Ulugboboyeva, M. M., & Tursunova, X. S. (2021). Ways to solve problems in the production of knit wear. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(9), 29-33.
7. Tursunova, X. S., & Rahmatovna, M. S. (2020). Ayollar paltosi uchun gazlamalar taxlili. In 3 rd international congress of the human and social science researches (itobiad).
8. Raxmatovna, M. S. (2022). Analysis of women's clothes sewing-a study to develop a norm of time spent on the technological process of knitting production. *International Journal of Advance Scientific Research*, 2(03), 16-21.
9. Maripjanovna, U. B. M., & Xilola, T. (2022). Problems of automation of technological processes of sewing manufacturing. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(1), 550-553.



10. Tursunova, K., & Fozilov, S. (2022). Research on the Development of Daily Clothing Sets for Teenage Girls from BI-Component Knitted Fabrics. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 12, 26-28.
11. Odinabonu, R. (2022). Paltobop qalin gazlamalarning suv shishish xossalaring tahlili. Scientific Impulse, 1(4), 1626-1630.
12. Nazarova, M., Kayumov, J., & Tursunova, K. (2023, June). Development of heating coats in Uzbekistan on the basis of analysis of the technologies of local wool fibers processing in small enterprises. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2789, No. 1). AIP Publishing.
13. Davronbek, T. (2023). Clo3d yordamida ayollar qomatlarini hamda unda kiyim o ‘rnashuvini tahlil qilish orqali kiyim dizaynini ishlab chiqish. Scientific Impulse, 1(8), 599-603.
14. Tursunova, X., & Ruzimatova, O. (2023). Palto modellari shakllariga gazlama xususiyatining ahamiyati va qomatga joylashuvining taxliliy yechimlari. Talqin va tadqiqotlar, 1(7).
15. Tursunova, X., & Ruzimatova, O. (2023). Ayollar murakkab bichimli kiyimlarida yenglar taxlili. Talqin va tadqiqotlar, 1(7).
16. Sodiqovna, A. M., & Abduqodirovna, B. R. N. (2022). Notipaviy qomatli ayyollarning o‘lchamlari va tana turlarining farqlanishi. Science and innovation, 1(A3), 284-288.
17. Baxtiyorovna, N. B. (2022). Development of Structures of Double Patterned Weaves With Elements of Press Loops With A Geometric Pattern. Eurasian Research Bulletin, 14, 175-181.
18. Каримов, Н. М., Абдулсаттаров, Б. К., Махмудова, Г., & Саримсаков, О. Ш. (2021). Пневматическая транспортировка хлопка-сырца на хлопковых заводах. In Инновационные Подходы В Современной Науке (pp. 61-70).
19. Сидиков, А. Х., Махмудова, Г., Каримов, А. И., & Саримсаков, О. III. (2021). Изучение движения частиц хлопка и тяжёлых примесей в рабочей камере пневматического очистителя. Universum: технические науки, (2-2 (83)), 51-56.



Research Science and  
Innovation House

**“JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN  
UZBEKISTAN” JURNALI**

**VOLUME 1, ISSUE 9, 2023. DECEMBER**


**ResearchBib Impact Factor: 8.654/2023**

**ISSN 2992-8869**



Research Science and  
Innovation House

20. Odiljonovich, T. Q. (2021). About automation of loading and unloading of cotton raw materials at cotton factory stations. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(10), 2068-2071.
21. Ergashov, Y., Babayeva, M., & Akhmedov, A. (2023). New regenerator design for regeneration of raw cotton voles from non-ginned seeds. Academia Science Repository, 4(04), 32-35.
22. O'g'li, T. U. D. U., & Qizi, B. M. N. (2022). Verification of the values obtained based on the theoretical analysis of the working details of the crusher in the program “Solidworks”. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(10), 222-229.



# **Research Science and Innovation House**